



UDK: 398.2:821.

*Odina NIZOMOVA,  
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti*

*TDTTrU.f.f.d. prof. J.Ramatov taqrizi asosida*

### “MAHOBXORAT” VA “ALPOMISH” DOSTONLARINING YARATILISHI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Mahabxorat” va “Alpomish” dostonlari Sharq xalqlari madaniy merosida beqiyos o‘rin tutuvchi ulkan epik asarlardir. Ularning badiiy, falsafiy va axloqiy mazmuni asrlar davomida insoniyat ma’naviy hayotini boyitib kelmoqda. “Mahabxorat” hind xalqining axloqiy-ta’limiy qarashlarini mujassam etgan muqaddas kitob sifatida qadrlanib, unda adolat, ezgulik va insoniy fazilatlarini tarannum etuvchi boy g‘oyalari jamlangan. Alpomish” o‘zbek xalqining qadimiy dostonlardan biridir. U qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi sevgi va sadoqat, oila mustahkamligini kuylovchi ulkan eposdir. Unda bir oila taqdiri misolida vaziyat taqazosi bilan bo‘linib ketgan qadimiy bir o‘zbek urug‘ining qayta birlashishini badiiy aks ettirish orqali millat birligi g‘oyalari, uning qahramonona shon-shuxrati va istiqboli, el-yurt farovonligi, oila baxti va Vatan ravnaqi uchun kurash baralla kuylangan.

**Kalit so‘zlar:** “Mahabxorat” eposi, “Alpomish” dostoni, Bhagavad Gita, Manas, Veda, axloqiy kodeks, axloqiy qadriyatlar, urug‘-qabila munosabatlari.

### СОЗДАНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ПОСЛАНИЙ «МАХОБХОРАТ» И «АЛПОМИШ»

Аннотация

Эпосы «Махабхарата» и «Алпомиш» занимают неповторимое место в культурном наследии народов Востока. Их художественное, философское и нравственное содержание на протяжении веков обогащает духовную жизнь человечества. Махабхарата почитается как священная книга, воплощающая нравственно-образовательные взгляды индийского народа, объединяющая идеи справедливости, добра и человеческих добродетелей. Алпомиш — один из древнейших узбекских эпосов. Это величественное произведение, воспевающее героизм, мужество, патриотизм, братство различных народов, а также любовь, верность и семейное единство. На примере судьбы одной семьи, символизирующей воссоединение древнего узбекского рода, разделённого обстоятельствами, в эпосе художественно отражены идеи национального единства, героической славы и будущего народа, благополучия страны, семейного счастья и борьбы за процветание Родины.

**Ключевые слова:** Эпос «Махабхарата», эпос «Алпомиш», Бхагавад-гита, Веды, нравственный кодекс, нравственные ценности и родо-племенные отношения.

### THE CREATION AND SIGNIFICANCE OF THE EPISTLES "MAHABKHORAT" AND "ALPOMISH"

Annotation

The epics “Mahabharata” and “Alpomish” hold an incomparable place in the cultural heritage of Eastern nations. Their artistic, philosophical, and moral essence has enriched the spiritual life of humanity for centuries. The Mahabharata is revered as a sacred text that embodies the moral and educational views of the Indian people, uniting profound ideas that glorify justice, goodness, and human virtues. Alpomish is one of the most ancient Uzbek epics. It is a grand epos celebrating heroism, courage, patriotism, the brotherhood of different peoples and nations, as well as love, loyalty, and family unity. Through the depiction of one family’s destiny-symbolizing the reunion of an ancient Uzbek tribe divided by circumstances – the poem artistically expresses ideas of national unity, heroic glory, prosperity of the nation, family happiness, and the struggle for the flourishing of the homeland.

**Key words:** The epic “Mahabharata”, the epic “Alpomish”, Bhagavad Gita, Manas, Veda, moral code, moral values, and tribal relations.

**Kirish.** Dunyodagi ko‘plab adabiyotlar singari qadimgi hind adabiyoti ham hind tarixining “qahramonlik davri” ni ulug‘laydigan o‘ziga xos eposiga ega. Qadimgi hind dostoni qadimgi davrlarda tuzilgan, ammo Hindistonda shu kungacha nihoyatda mashhur bo‘lgan ikkita yirik doston “Mahabxorat” va “Ramayana” bilan ifodalanadi.

**Metod va metodologiya.** Metod va metodologiya. Tadqiqotchilarning fikricha, Veda Vyasaning “Mahabxorat”i uch bosqichda yozilgan. Birinchi bosqichda 8800 misra, ikkinchi bosqichda 24 ming, uchinchi bosqichda bir million misra yozilgan. Veda Vyasaning “Mahabxorat” dan tashqari, Bhandarkar Sharq tadqiqot institutining Sanskrit “Mahabxorat”i, eng yaxshi nusxasi hisoblanadi. Ingliz tilidagi butun “Mahabxorat” ikki marta tarjima qilingan. Birinchi

tarjima Kisari Moxan Ganguli tomonidan 1883-1896 yillarda, ikkinchisi Manmanthnath Dutt tomonidan 1895 yildan 1905 yilgacha qilingan. Doktor Debroy butun “Mahabxorat” ni 100 yildan keyin uchinchi marta ingliz tiliga tarjima qilmoqda.

“Mahabxorat” dagi ba’zi rivoyat va qahramonlar veda adabiyotida ham uchraydi. Syujetlar asosan afsona va rivoyatlardan iborat bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan ular yangilanib, o‘zgarib, asarning hajmi kattalashib borgan. Undagi ba’zilari hikoyalar xalq og‘zaki ijodidan olingan. Ba’zi rivoyat va qahramonlar veda adabiyotida ham uchraydi. Jumladan, “Shakuntala qissasi”, “Rama qissasi”, “Shiva haqidagi qissa”, “Nala qissasi”, “Shoh Shiva haqidagi qissa”, “Savitriy qissasi” kabi rivoyatlar xalq og‘zaki ijodidan kirib kelgan. Eposda Hindistondagi qadimiy Hastinapur (bugungi Dexli) davlatining

shohi Bharataning yettinchi avlodida (kavravlar va pandavlar o'rtasida) taxt uchun bo'lib o'tgan buyuk janglar tarixi bayon etiladi. Undagi voqealar miloddan avvalgi 2000 yillikning 2-yarmida bo'lib o'tgan, deb taxmin qilinadi.

Hozirgi kunda ilm-fanda "Mahabxorat" qadimgi davrlarda sodir bo'lgan haqiqiy voqealarga asoslangan, degan taxminlar mavjud emas. Hindiston urf-odatlarini ularni miloddan avvalgi III yoki hatto IV ming yilliklarning o'rtalariga to'g'ri keladi

Ushbu rivoyatda o'lik yoki tirik odamlar haqidagi bir nechta kichik hikoyalar va falsafiy suhbatlar mavjud. Krishna-Dvaypayan Vyasa, o'zi eposdagi personaj, uni yaratgan, chunki, an'anaga ko'ra, u oyatlarni aytib turgan va Ganesha (गणेश) ularni yozgan. 100000 misradan iborat bo'lib, bu umuman miloddan avvalgi 4-asrda yoki undan oldinroq tuzilgan deb o'ylangan eng uzun epik she'rdir.

Dostondagi voqealar Hindiston yarim orolida va uning atrofidagi hududlarda bo'lib o'tadi. Bu birinchi marta Vyasaning talabasi tomonidan hikoyaning asosiy belgilaridan birining nabirasining ilon qurbonligi paytida aytilgan. "Bhagavad Gita"ni o'z ichiga olgan "Mahabxorat" dostoni haqiqatan ham dunyo adabiyotining eng muhim matnlaridan biridir.

"Mahabxorat" da tasvirlangan manzaralar, jang epizodlarining, asar personajlarining badiiy ifodasi asrlar mobaynida hind adiblarini ilhomlantirib keldi. Qadimda butun bir hind xalqining eposi bo'lgan "Mahabxorat" bugungi kunda Hindiston xalqining o'z "Mahabxorat" ini yaratishga zamin bo'ldi. Bugungi kunda Hindistonda har bir millatning o'z "Mahabxorat" i mavjuddir. Jumladan, Andhra Pradesh xalqining "Andhra Mahabharati" eposi buyuk "Mahabxorat" ning tarjimai emas, balki andhra xalqining "Mahabxorat" eposidan ta'sirlanib yaratgan yangi asaridir, shu bois uning nomi ham "Mahabxorat" nomi bilan bog'liq.

Eposdagi syujetlarni Hindiston, Malayya, Indoneziya, Myanma, Shri Lanka va boshqa xalqdar milliy adabiyotida uchratish mumkin. J. Neru "Mahabxorat" bilan "Ramayana" eposlarining adabiyotga ta'sirini baholab: "Omma ongiga bu ikki asardek uzoq muddat davomida hamda chuqur ta'sir qila olgan kitobni boshqa hech bir mamlakatda ko'rnamdim, -degan edi". Hind dostonlari ta'siri nafaqat hind xalqi, balki boshqa xalqlar adabiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Hindiston an'alarida "Mahabxorat" muqaddas kitob sifatida hurmat qilinadi, chunki "Beshinchi Veda" (पञ्चवेद) qadimgi to'rtlikdan farqli o'laroq, oddiy odamlar uchun mavjud va ular uchun mo'ljallangan.

**Adabiyotlar tahlili.** "Mahabxorat" dostoni haqida bizga Beruniyning asarlarida qisqacha ma'lumot berib o'tgan. "Mahabxorat" haqida ham qiziq gaplarni o'qiyimiz: "Hindlarning bir kitobi bor, uni shunday ulug'laydilar: "Boshqa kitoblarda uchratiladigan narsalar, albatta, bu kitobda topiladi, ammo bu kitobdagi har bir narsa boshqa kitoblarda topila bormaydi", deb qat'iy hukm qiladilar. U kitob ismi "Bharata" bo'lib, uni Pandu avlodi bilan Kuru avlodi o'rtasidagi katta urush kunlarida Paroshara o'g'li Vyasa tuzgan...". Shundan keyin buyuk dostonning o'n sakkiz kitobi birma-bir sanab, ta'riflab o'tiladi".

Milodiy 1-ming yillikning ikkinchi yarmiga kelib doston haqiqat kitobi, axloq kodeksi va saodat uchun qo'llanma sifatida hurmatga sazovor bo'lgan va o'sha paytda ham, hozirgi kabi, ibodatxonalarda o'qish uchun muqaddas kitob sifatida taklif qilingan. Hindiston an'alarida "Mahabxorat" muqaddas kitob sifatida qadrlanadi. O'zbek xalq og'zaki ijodining eng yirik va muhim namunalari biri — bu "Alpomish" dostonidir. U o'zbek xalqining milliy o'zligini, ijtimoiy hayotini, axloqiy qarashlarini, tarixiy xotirasini

mujassam etgan buyuk badiiy yodgorlikdir. Doston nafaqat badiiy asar, balki xalq ma'naviyatining o'ziga xos ko'zgusi, falsafiy dunyoqarashining yorqin ifodasidir. Shu boisdan ham "Alpomish" nafaqat adabiyotshunoslar, balki folklorshunoslar, tarixchilar, etnologlar va faylasuflar diqqat markazida bo'lib kelgan.

Qahramonlik dostonlarimiz asrlar mobaynida xalqimizga juda katta ruhiy va ma'naviy quvvat berib kelayotir. Shuning uchun ular ma'naviy qadriyatlarimizning alohida tarkibiy qismi sanalanadi. Marosimlarga aloqador urf-odat va an'analarning bevosita dostonlarda berilishi masalasiga, ikkinchidan, doston kuylashning marosimlar bilan bog'liq tarzda davom etayotgani masalasiga ahamiyat berish kerak. "Alpomish" dostoni o'zbek xalqi qadimiy qahramonlik eposining yorqin namunalariidan biridir. Unda Alpomishning o'z yaqinlari tinchligi, baxtu saodati yo'lida ko'rsatgan qahramonliklari madh etiladi. Shu bilan birga, ushbu doston jamiyat va inson hayoti masalalari o'ziga xos reallikda — qahramonlik va go'zallik haqidagi xalq ideallari doirasida kuylanadi. Alpomish nomi aslida yosh avlod shuuriga onalarning allalari orqali juda yoshlikdan singib boradi. Shu bilan u ajdodlar yodi, faxru g'ururi vositasiga aylanadi. Bu doston turkiy xalqlar patriarxat hayotining o'ziga xos poetik ko'zgusidir. Doston o'zbek xalqining milliy qahramonlik eposi sifatida xalq xotirasida mustahkam o'rin tutib, nafaqat adabiy yodgorlik, balki ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida ham qadrlanadi. Shu bois "Alpomish"ning ilmiy tadqiqi faqat adabiyotshunoslik doirasida emas, balki tarix, falsafa, etnografiya, antropologiya kabi ko'plab fanlarning e'tibor markazida bo'lib kelmoqda.

Tarixchilar va etnograflar dostonida aks etgan urug'-qabila munosabatlari, oila va jamiyat tizimi, urf-odatlarini o'rganadilar. Masalan, Barchinoyning sovchi orqali tanlanishi, qahramonlarning to'y marosimlari yoki jang sahnalari xalqning real hayot tarzidan darak beradi. Shu bois "Alpomish" qadimiy turkiylarning ijtimoiy hayoti va etnografiyasini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Doston insonning ichki dunyosi, orzu-intilishlari, irodasi va qahramonlik ruhini ham yoritadi. Shu jihatdan antropologik yondashuvda "Alpomish" insoniyatning universal qahramonlik modeli sifatida ko'riladi. Psixologik nuqtayi nazardan esa, Alpomish obrazi odamlarning jasorat, qu'rquv, sadoqat kabi hissiyotlarini ramziy shaklda ifodalaydi.

"Alpomish" dostoni nafaqat badiiy va madaniy meros, balki chuqur falsafiy g'oyalarni ham o'zida mujassam etadi. U xalqning ma'naviy qarashlarini, axloqiy tamoyillarini va insoniy qadriyatlarini ramziy shaklda aks ettiradi.

Alpomish obrazi qahramonlikning universal timsoli sifatida talqin qilinadi. U jasorat, sadoqat va iroda timsoli bo'lib, xalqqa xizmat qilish, zulm va yovuzlikka qarshi kurashish kabi fazilatlarini o'rgatadi. Bu jihat bilan doston axloqiy-estetik tarbiya manbai sifatida qadrlanadi.

**Muhokama.** Dostonning asosiy falsafiy g'oyalaridan biri — adolat va to'g'ri rahbarlikni tiklash. Alpomish jamiyatdagi notenglik va zulmga qarshi kurashib, xalqning farovonligini ta'minlaydi. Shu jihat bilan dostonning falsafiy qatlami ixtiyor, mas'uliyat va liderlik

Barchinoy ayol sifatida faqat qahramonning sevgani emas, balki axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy timsoldir. U sadoqat, sabr-toqat, mardlik va ongli qarorlar bilan Alpomishning safarida muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan ayol obrazi muvozanat, insoniylik va axloqiy kuch ramzi sifatida falsafiy talqin qilinadi.

"Alpomish" falsafiy talqinda hayot, adolat, sevgi, jasorat va jamiyat tarbiyasi kabi universal mavzularni qamrab oladi. U xalqning axloqiy-ijtimoiy qadriyatlarini saqlab qolish va avlodlarga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi.

“Alpomish” dostoni bugungi kunda ham o‘z ma’naviy, madaniy va ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan. U xalqning tarixiy xotirasi, axloqiy qadriyatlarini va badiiy didini shakllantirishda davom etmoqda.

Doston maktab va oliy ta’lim muassasalarida milliy adabiyot va folklor fanlari doirasida o‘rganiladi. U o‘quvchilarga tarixiy voqealarni, qahramonlikni va axloqiy qadriyatlarni yetkazuvchi manba sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, doston til va nutq madaniyatini oshirishga ham yordam beradi.

Teatr, opera, kino va musiqiy asarlarda “Alpomish”ning motivlari keng ishlatiladi. Bugungi kunda turli sahna asarlari va film adaptatsiyalari orqali dostonning ijodiy potentsiali va xalqaro tanilishi oshmoqda. Bu esa uni zamonaviy madaniyatning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

“Alpomish” bugungi kunda ham o‘zbek xalqining milliy ma’naviy merosi va identitet timsoli sifatida qadrlanadi. U xalqni birlashtiruvchi, tarixiy xotirani saqlovchi va axloqiy qadriyatlarni avlodlarga yetkazuvchi vosita sifatida faoliyatini davom ettirmoqda. U “Mahabxorat”ning qadimdan axloqiy kodeksi va hayot qo‘llanmasi sifatida e’tirof etilishi uning umuminsoniy ahamiyatini ko‘rsatadi.

“Alpomish” dostoni esa o‘zbek xalqining milliy o‘zligini, tarixiy xotirasini, ijtimoiy hayoti va axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi nodir yodgorlikdir. U nafaqat qahramonlik, balki oilaviy sadoqat, muhabbat, vatanparvarlik va xalq birligi g‘oyalarini o‘zida mujassam etadi. Dostonning

ildizlari qadimgi turkiy urug‘-qabila davrlariga borib taqaladi. Asrlar davomida baxshilar ijrosida turli variantlarda yashab kelgani, yozma shaklga o‘tib ilmiy nashrlarda keng tadqiq etilgani uning xalq ruhiyatida mustahkam o‘rnini tasdiqlaydi. “Alpomish” qahramonlikning universal timsoli sifatida jasorat, sadoqat, iroda va adolat g‘oyalarini yosh avlodga yetkazuvchi ma’naviy ko‘prik vazifasini bajaradi. Barchinoy obrazi esa xalq tasavvurida sadoqat, sabr-toqat va axloqiy kuch timsoli sifatida alohida e’tibor kasb etadi.

Har ikkala doston qiyosiy o‘rganilganda ularning umumiyliklari — qahramonlik, muhabbat, ezgulik va yovuzlikka qarshi kurash motivlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Mahabxorat”, “Shahname”, “Manas” kabi asarlar qatorida “Alpomish”ning ham jahon epik merosidagi o‘rni alohida e’tirof etiladi. Bugungi kunda bu dostonlar nafaqat adabiyotshunoslik, balki folklorshunoslik, falsafa, tarix, etnografiya va antropologiya fanlarida ham qimmatli ilmiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular maktab va oliy ta’limda, teatr, kino va musiqa san’atida o‘rganilib, xalqning tarixiy xotirasi va ma’naviy qadriyatlarini avlodlarga yetkazishda davom etmoqda.

**Xulosa.** Shunday qilib, “Mahabxorat” va “Alpomish” dostonlari xalqning axloqiy-estetik qarashlari, tarixiy xotirasi va milliy identitetini saqlashda muhim vosita bo‘lib, ularning ilmiy tadqiqi umuminsoniy ma’naviy merosni anglashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Липкин С. Великий эпос Индии. – Москва: Художественная литература, 1974. – 439 с.
2. Ибрагимов А. Р. Старый царь Махабхараты. Свобода выбора и судьба в индийском эпосе. – Монреаль: AGC. 2016. – 464 с.
3. Гринцер П. Великий эпос Индии Махабхарата, Рамаьяна. – Москва: Академия наук СССР, 1974. – 421с.
4. Po‘latova D., Qodirov M., Ahmedova M., Abduhalimov A. Falsafa tarixi (Sharq falsafasi). – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013. – 532 b.
5. Сарвепалли Радхакришнан. Индийская философия. – Москва: Академия наук СССР, 1956. – 623 с.